

Tong YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

2007-yil
9 - 15 - iyul
N:28
(66621)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

9 yoshli Bobur
Mahkamboyev shu yil
Fransiyaning Parij
shahrida bo'lib o'tgan
Xalqaro tanlovda
qatnashib,
1-darajali Diplom bilan
taqdirlandi.
Kichik musiqachimizni
katta muvaffaqiyati bilan
chin dildan qutlaymiz!
Bobur bilan
gazetamizning keyingi
sonlari orqali yaqinroq
tanishasiz.

«Bu mening eng
sevimli gazetam!» —
deydi u.

DUSHANBADAN

KITOBSEVARLARGA SOVG'A

Ayni ta'til davrida gulistonlik kitobsevar o'quvchilar zerikmaydigan bo'lishdi. Sababi, Sirdaryo viloyati markazida yangi kitob do'koni ishga tushirildi. Qiymati 50 million so'mni tashkil etuvchi 3 ming turdagi nashrlar kitobxonlarning ma'naviy mulkiga aylandi. Bunday qulaylikni boshqa viloyatlarda ham ommalashtirish kerak emasmi?

SAMARQANDDA JAHON CHEMPIONATI

Samarqand shahrida Olimpiya zahiralari tayyorlash markazida qo'l jangi bo'yicha jahon chempionati o'tkazildi. Unda dunyoning 14 ta davlatidan 20 dan ortiq jamoa ishtirok etdi. Yurtimiz sportchilari umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladilar. Ulardan o'mak oling, aziz bolalar!

«YOZNI «KAMOLOT» BILAN!»

«Kamolot» YOIH Shayxontohur tuman bo'limi Kengashi tomonidan yoz mavsumi davomida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

«Yozni «Kamolot» bilan!» loyihasini o'tkazishdan maqsad, tuman hududida istiqomat qiluvchi bolajonlarni yozgi ta'tillari davomida mazmunli hordiq chiqarishlariga ko'maklashish, ularni ma'nan va jismonan chiniqtirish, o'smir yigit-qizlarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularni har jihatdan qo'llab quvvatlashdir.

DO'STLIK FORUMI

Bo'stonliq tumani, G'azalkent shahridagi Markaziy o'yingoh maydonida «O'zbekistonda yashovchi turli millatga mansub xotin-qizlar va yoshlar jinoyatchilikka, terrorizm va giyohvandlikka qarshi» shiori ostida «Shu aziz vatan barchamizniki!» mavzusida Do'stlik forumi o'tkazildi.

DUSHANBAGACHA

Yozgi topshiriq

Ramziy qahramonlar qanday bo'lishi kerak?



Äziz o'quvchilar, bilasizmi, «Tong yulduzi» 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlarning gazetasi. Shunday ekan, bog'cha tarbiyalanuvchisidan tortib, kollej va litsey talabalarigacha, qo'yingchi, har biringizning gazetada o'z sahifangiz bo'lishi kerak. Shu maqsadda qator ruknlar tashkil qilganmizki, har birining o'z o'quvchisi, muxlisi borligini bizga yo'llayotgan maktublaringiz mazmunidan ham bilsa bo'ladi.

«Ukamning tili shirin», «Yulduzxon shahar kezadi» kabi kichkintoylar hayotidan «so'zlovchi» sahifalarimizni gazetamizning ramziy qahramoni YULDUZXON olib borishini yaxshi bilasiz. Maktab o'quvchilari hayoti, qiziqish va intilishlari, sevimli mashg'ulotlari haqidagi «Maktabimni maqtatam», «Maktabdagi muhabbat» kabi sahifalarimizni, shuningdek, kollej va litsey o'quvchilari hayoti, muammolari, reja va orzulari haqidagi «O'smirlar bekati», «Faqat qizlar o'qisin!», «Dugonalar - bo'lajak onalar», «Qulog'ingga gapim bor» nomli sahifalarimizni boshqaradigan ramziy qahramonlar timsolini o'ylab topish esa sizga yozgi topshiriq. Bu ikki boshlovchini qanday tasavvur qilsangiz, shunday aks ettiring va nomlang. Biz esa ular orasidan eng ma'qulini tanlab, gazetada e'lon qilamiz. Shoshiling, tanlov g'oliblariga atalgan sirli sovg'amiz ham bor.

ENDI YOLG'IZ QO'YMAIMAN

Men doim ta'til kunlarida buvimlarnikiga borardim. Lekin bu safar dugonalarim toqqa dam olishga ketishayotganini aytishganda, mening ham ular bilan borgim keldi. Bu ta'tilda buvimlarnikiga bormasam ham bo'lar, axir uyda tog'am ham bor-ku, degan o'yda dugonalarim bilan borishga qaror qildim. Tog'da vaqtimizni chog' o'tkazdik. Sayohatdan qaytgach, uyga kelsam oyim ham, dadam ham yo'q ekanlar. Ko'zim stol ustidagi qog'ozga tushdi. Xat oyimdan bo'lib, bugun kech kelishlari yozilgandi. Shu topda xayolimdan buvijonim o'tdilar. Axir ular ham yolg'iz qolganlarida eshikka tikilib meni kutganlar-ku. Tog'am dalada ishlash uchun saharda chiqib ketadilar.

Ertasi kuni ertalab buvimlarnikiga yo'l oldim. Quchoqlariga otilib, endi hech qachon yolg'iz qoldirmaslikka so'z berdim.

Zarnigor QO'LDOSHEVA,
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi
57-ixtisoslashgan maktabning 7-sinf o'quvchisi

KUTUBXONAMIZDA ZERIKMAYMIZ

Men «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini qiziqish bilan o'qiyman. Tahririyatga ham tez-tez maktub yo'llab turaman. Bo'sh vaqtlarimda badiiy kitoblar o'qiyman, rasmlar chizaman. Ijod bilan ham shug'ullanaman.

Maktabimizdagi kutubxonaning faol a'zosiman. Kutubxonamiz kichkina bo'lsa ham, qiziqarli kitoblar juda ko'p. Ta'til kunlari bu yerda bolalar gavjum bo'lishadi. «Tong yulduzi» gazetasi keladigan kunni hammamiz intizorlik bilan kutamiz. Chunki tengdoshlarimizning yangi ijodlari bilan tanishish bizga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Xullas, kutubxonamizda ham zerikib qolmaymiz.

Humayra ESHMO'MINOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi
43-maktab o'quvchisi

Aytsam tilim, aytmasam...

Hozirgi paytda to'ylarimizdagi odobimizga zid ayrim voqealar nafsoniyatimizga tegadi. Kuni kecha ro'y bergan bir to'ydagi voqea qo'limga qalam tutqazdi. Yon qo'shnimizning qizini qo'ni-qo'shnilar bilan quda tarafga uzatib bordik. To'yxona orasta, stollarga oppoq dasturxonlar yozilib, uning usti noz-ne'matlar bilan to'ldirilgan. Biz yoshi kattaroq ayollar to'rdan joy oldik.

Bir payt yonimizda ikkita qizcha paydo bo'ldi. Ular biz bilan birga borgan ayollarning nabiralari edi. Qizlardan biri maktab o'quvchisi, ikkinchisi esa 5-6 yoshlardagi qizaloq edi. Ular yonma-yon o'tirib olib, birin-ketin kattalardan ham oldin dasturxoniga shosha-pisha qo'l uzata boshladilar. Yonimizdagi bir ayol ularga tanbeh berdi. Qizlardan birini buvisi ichkarida quda ayollar bilan o'tirar, ikkinchisining buvisi esa bizning qatordan joy olgan edi. Qo'g'irchoqdek qilib yasatib qo'yilgan qizchalar bir shisha «Fanta» ichimligini talashib dasturxoniga to'kib yuborishdi. Keyin dasturxoniga suyuq ovqat tortildi. Shoshqaloq qizlar kosadagi ovqatni ham dasturxoniga to'kib yuborishdi. Bu narsa atrofda g'ilarning g'ashiga tega boshladi. Bu ayol ikir-chikir so'zlar bilan boshimizni qotirayapti, dersiz. Lekin chetdan qaragan odamga bu narsa shunday xunuk ko'rindiki...

Mayli, o'sha kuni shu qizlarni uyida qoldirish imkoniyati bo'lmagandir, lekin jamoat joylarida o'zini qanday tutishni eslatib qo'yish mumkin edi-ku, axir bekorga «Bola boshidan...» deb aytmaydilar-ku. To'rda o'tirgan buvijon parvoyi falak bo'lsa, ichkaridagi buvijon to'y tugaguncha ham nabirasidan biror marta xabar olmadi. «Bola aziz, odobi undan aziz», degan hikmatli naql bor. Axir farzandlar, nabiralalar kelajagimiz, yuz-ko'zimiz, o'zining yaxshi xulq-atvori bilan bizni ko'kka ko'taradigan ham, ayrim nojo'ya qiliqlari bilan yerga tortadigan ham ular. Ular uchun esa ota-onalaridan ham ko'proq biz - oilaning kattalari, ko'p yillik hayot tajribasiga ega bo'lgan, hayotning achchiq-chuchugini totgan buvijonlar mas'ulmiz-ku!

Hozirgi paytda buzilib ketayotgan oilalarning ko'pchiligi arzimas sabablar: qizlarning noshudligi, uddaburon emasligi, xulq-atvoridagi ayrim nuqsonlar: qo'pollik, muomalani bilmasligi tufayli ham yuz berayapti. Hamma tomoshabin bo'lib turaversa, beparvolik, loqaydlikni kundalik shiorga aylantirib olsak, kelajagimiz nima bo'ladi?!

Hozirgi paytda buzilib ketayotgan oilalarning ko'pchiligi arzimas sabablar: qizlarning noshudligi, uddaburon emasligi, xulq-atvoridagi ayrim nuqsonlar: qo'pollik, muomalani bilmasligi tufayli ham yuz berayapti. Hamma tomoshabin bo'lib turaversa, beparvolik, loqaydlikni kundalik shiorga aylantirib olsak, kelajagimiz nima bo'ladi?!

Gulchehra KARIMOVA



GO'ZAL KULTEPA TARIXI

Bobomning aytishlaricha, Kultepa qishlog'imiz bir paytlar gullarga kon, chamanzor bo'lgani uchun ham Gultepa deb atalgan ekan.

Bir kuni uning chiroyini ko'rolmagan yovuz kimsalar qishloqqa o't qo'yishibdi. Barcha gullar yonib, kul bo'libdi. Daydi shamol kullarni qishloq yaqinidagi tepalikka uchirib ketibdi. Shu-shu bu tepalikning nomi Kultepa deya atala boshlabdi. Bu kullar ota-bobolarimiz, onaxonlarimizning ko'z yoshlari, faryodi edi.

Hozirgi kunda qishlog'imiz Kultepa deb atalishiga qaramay, kundan kunga chiroy ochib, gullab-yashnab boryapti. Bunga uning yosh-u qarisi hissa qo'shmoqda.

Kamola XUDOYBERDIYEVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 33-o'rta
maktabning 5-«B» sinf o'quvchisi

«Vatan ichra mo'jaz Vatanim»
insholar tanloviga

MARHAMATGA MARHAMAT!

Men Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi O'qchi qishlog'ida yashayman. Sizlarga tumanimiz haqida so'zlab bermoqchiman. Tumanimiz 2000 yillik tarixga ega bo'lib, manbaalarning guvohlik berishicha, Farg'ona vodiysining, ya'ni Davon mamlakatining poytaxti bo'lgan ekan. Avvallari Mingtepa nomi bilan yuritilgan bo'lib, 1926-yildan Marhamat deb atala boshlabdi. Unda bitta shahar, bitta shaharcha, beshta qishloq va yigirma beshta aholi punkti mavjud. Bu yerdan To'xtasin Mirzayev, Mo'tixon Jumaboyeva, Saodat Mo'ydinova singari ko'plab el tanigan insonlar yetishib chiqishgan. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning ham ona yurti sanaladi.

Bugungi kunda 400 mingga yaqin o'zbek, qozoq, tatar, qirg'iz, tojik, rus, uyg'ur kabi millat vakillari ahil, inoq yashab kelayotgan tumanimizda paxta, bug'doy, poliz ekinlari, turli mevalar yetishtiriladi.

Siz ham tumanimizga bir keling, shirin-shakar mevalarimiz bilan mehmon qilamiz.

Durdona QAMCHIYEVA,
Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi
29-o'rta maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi

SHOSHQALOQ QIZLAR

Samarqand shahrining 2750 yilligiga

Bolajonlar, Yurtboshimiz tomonidan 2006-yil 25-iyulda «Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida» qaror qabul qilingan. Ushbu qarorga asosan Samarqand shahrida hozirgi kunda katta miqyosdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Me'moriy yodgorliklar ta'mirlanmoqda, maydon va xiyobonlar, ko'chalar obodonlashtirilib, yangi gulzorlar barpo qilinmoqda. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyini xalqaro miqyosda o'tkazilishi, shubhasiz, respublikamiz madaniy hayotida katta ahamiyatga egadir.

YER YUZI SAYQALI

Ota-bobolarimiz qadimiy Samarqandni «Sayqali ro'yi zaminast», «Yer yuzi sayqali», deb bejiz atamaganlar. O'zbekistonning janubi-g'arbida, Zarafshon vodiysining o'rta qismida joylashgan bu qadimiy va hamisha navqiron shahar o'zining boy tarixi va noyob me'moriy obidalari bilan olamga mashhurdir. Shu jihatdan Samarqand dunyoning eng qadimgi shaharlari bo'lmish Rim, Afina, Qohira va boshqalari bilan teng ravishda raqobatlasha oladi.

Shaharning yoshi to'g'risida qadimgi tarixiy yozma manbalarda Xitoy tarixchisi Chjan Syan, yunon va rimlik tarixchilar Arriyan va Kursiy Ruf, XII asr O'rta Osiyo tarixchilari Muhammad an-Nasafiy, Haydar as-Samarqandiy asarlarida, shuningdek, Abu Tohirxoja Samarqandiyning «Samarqand» kitobida va boshqa ko'plab mualliflar asarlarida ma'lumotlar qayd qilib o'tilgan. Samarqand va Rimning insoniyat tarixidagi buyuk xizmatlarini e'tiborga olib, ular «Boqiy shaharlar» nomini olganlar.

Samarqandda mashhur donishmandlar, allomalard tug'ilib voyaga yetgan. Jumladan, Mirzo Ulug'bek munajjimlar maktabiga asos solgan, madrasa va rasadxonalar qurdirgan. Uning yonida G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi kabi mashhur olimlar yetishib chiqdilar.

Samarqand iste'dodli shoirlar va bastakorlar, sozanda va go'yandalar ijod etgan shahardir. Shulardan XVI-XVII asrlarda Miram Chalabiy, Amir Akbar Samarqandiy,

Do'stiy Samarqandiy, Koshifiy Samarqandiy, Mavlono Abdulxayr Samarqandiy, Mir Jaloliddin Xorazmiy va boshqa bir qator fan, madaniyat va san'atning mashhur namoyondalari yashab, ijod etganlar.

Samarqand nomining kelib chiqishi to'g'risida bir qancha taxmin va qarashlar mavjud. Ba'zi Yevropa olimlari bu nomni sanskritcha «Samarya», ya'ni «yig'in», «anjuman» so'zidan kelib chiqqan, deb hisoblaydilar. Antik davr, ayniqsa, yunon tarixchilari asarlarida shaharning nomi «Marokanda» tarzida ifodalangan bo'lib, «Samarqand» nomining yunoncha aytilishidir. XI asr olimlari Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg'ariy shahar nomining kelib chiqishini qadimiy turkiy «Semizkent», ya'ni «Semiz (katta) shahar» so'zining buzib talaffuz qilinishidan, deb tushuntiradilar.


Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur davrida Samarqand yana-da go'zallashdi. Amir Temur Samarqandni o'z davlatining poytaxtiga aylantirdi, shahar hududida bir-biridan go'zal va hashamatli binolar qurdirdi.

Samarqandning tarixiy-me'moriy yodgorliklari 2001-yilda YUNESKO xalqaro tashkilotining 25-sessiyasida Jahon me'rosi ro'yxatiga kiritildi. Shaharda Registon, Shohi Zinda ansambllari, Amir Temur, Ruhobod maqbaralari, Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim jome masjidi, Xoja Ahror, Hazrati Xizr masjidlari, Abdidarun majmuasi va

boshqalar saqlanib, davlat muhofazasiga olingan. Shahardagi tarixiy obidalar Xitoy, Hindiston, Misr, Yunonistondagi Afina, Italiyadagi Rim yodgorliklari singari o'zining go'zalligi va betakrorligi bilan sayyohlar e'tiborini o'ziga tortadi. Samarqandga har yili dunyoning turli mamlakatlaridan minglab mehmon va sayyohlar tashrif buyuradilar. Samarqand shahrida hozirgi kunda xalqaro miqyosdagi turli anjumanlar o'tkazib borilmoqda. Shulardan, ayniqsa, «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalining Samarqandda o'tkazilishi ahamiyatlidir. O'zbekiston tarixida shaharning tutgan o'rni beqiyosdir. Shularni inobatga olib, samarqandliklarning asrlar davomida milliy fan va madaniyatimizni rivojlantirishga qo'shgan buyuk hissasini e'tirofi sifatida 1996-yil 28-avgustda Samarqand shahri «Amir Temur» ordeni bilan taqdirlandi.

1970-yilda shaharning 2500 yillik yubileyi o'tkazilgan edi. Mustaqillik yillarida o'zbek arxeolog olimlari M.Isomiddinov, A.Anorboyev va tadqiqotchi A.Otaxo'jayevlarning fransiyalik akademik, sharqshunos arxeologlar Pol Bernar va Frans Grenelar bilan hamkorlikda olib borilgan arxeologik qazishma ishlari natijasida Afrosiyobdan topilgan qadimgi ashyolar Fransiyada radiokarbon tadqiqot usulida o'rganilib, ular miloddan avvalgi VIII asrga, aniqrog'i, 2750 yoshga taalluqli ekanligi aniqlandi.

Ibrohim KARIMOV,
«O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti muharriri



Abul Faraj ISFAXONIY
«Nodir hikoyalar» kitobidan

HECH KIM BAS KELOLMAYDI

Qadim zamonlarda hind xalqida shunday odat bor ekan: kimdir (kasallikdan va boshqa sababdan) vafot etsa, o'sha odamning do'stlari va qarindosh-urug'laridan bir guruhi turli qurol-aslaha ko'tarib kelib, marhumning oilasidan bunday ko'ngil so'rar ekanlar:

– Biz uchun aziz odamni kim o'ldirdi? Ayting, undan o'ch olaylik, o'ldiraylik, – der ekanlar.

Marhumning yaqinlari ularga:
– Uning ajali yetgan ekan, ajalni ko'rib ham, ushlab ham bo'lmaydi, – deb javob berisharkan.

Kelganlar ularga:
– Modomiki, ajalni hech kim yengolmas ekan, biz ham unga hech narsa qilolmaymiz, – deb marhumning qayg'urayotgan yaqinlarini yupatar ekanlar.

DAVOSIZ DARD

Hind donishmandi aytur:
– Tig' yarasi bitib ketadi, lekin so'z yarasi bitmaydi.

Yulduz AZIZOVA tarjimasi

Shu kunlarda maktabni tamomlagan har bir yigit-qiz xayolida biror-bir kasb yoki hunarni egallash fikri charx urmoqda. Ba'zi o'smirlar bolaligida orzu qilgan kasbni tanlab ulgursa, ayrimlar ota-onasining tavsiyasi bilan hunar egallashga harakat qiladi. Qadimda biror-bir hunarga qiziqqan yoshlardan qat'iyatlilik talab etilib, ustozga birlashtirilgan. Endilikda paydo bo'lgan zamonaviy kasblarning xilma-xilligi ham ushbu ostonada turgan yigit-qizlarni har tomonlama o'ylashga majbur qiladi. Ba'zi ota-onalar farzandining huquqshunos yoki iqtisodchi, hech bo'lmaganda, iqtidori bo'lmasa-da, shifokor bo'lishini istaydilar. Ana shu jarayonda boshqa bir kasb yoki hunarga qiziqishi bo'lgan o'smirda norozilik alomatlari paydo bo'ladi. Umuman, ota-ona farzandini biror-bir kasbga bo'lgan qiziqishini qanday aniqlashi mumkin? Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, psixologiya fanlari nomzodi Lutfulla Tursunov shunday tavsiyalar beradi:

– Bolaning ijtimoiy jamiyatda foydali shaxs bo'lib yetishishi ikki omilga bog'liq. Birinchisi, bolaning o'ziga xos bo'lgan qobiliyati bo'lsa, ikkinchisi, ota-onaning namuna ko'rsatishidir. Psixologiya nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, har bir shaxs o'z faoliyatidan qoniqsa, jamiyatning haqiqiy a'zosi aylanadi. Umuman, bolalar ikki yo'nalish bo'yicha kasb tanlaydilar. Birinchisi,

hunarmand, ya'ni ustazodalar izidan borish, ikkinchisi biror-bir kasbga moyillik bildirish. Xo'sh, buni aniqlash usuli qanday? Kasb shaxsdan talab qiladigan va shaxs kasbdan talab qiladigan xususiyatlar mavjud. Kasbni shaxsdan talab qiladigan xususiyatni olib qaraydigan bo'lsak, masalan, zargarlik kasbi kishidan ko'zi o'tkirlilik, diqqati yo'nalgan, qo'llar titramasligi va ijodkorlikni talab etadi. Shaxs kasbdan talab qilinishi esa qiziquvchanlik, ijodkorlik, qobiliyat va iroda bo'lishi shart.

YUNESKO tashkilotining bayon qilishicha, dunyoda 250 mingdan ortiq kasb-hunarlar bor ekan. Abu Rayhon Beruniy ham o'z davrida Movaraunnahrda ikki yarim ming turdagi kasb-hunarlar mavjud bo'lganligini o'z asarlarida keltirib o'tadi.

Kasb tanlash ostonasida turgan o'smir bilan har bir ota-ona alohida suhbatlashishi lozim. Bolada biror-bir kasbga mehr bo'lsa, to'g'ri yo'l ko'rsatish uning yaqinlariga bog'liq. Agar bolada tanlagan kasbga nisbatan layoqat sezilsa, ana shu yo'nalish bo'yicha o'quv maskanini tanlash imkoniyatini berish lozim. Agar bola tanlagan kasb murakkab bo'lsa, ota-ona darhol hayotiy misollar yordamida tushuntira bilishi kerak.

Bir so'z bilan aytganda, kasb tanlashda o'smir ham, ota-ona ham adashmasligi lozim.

Robiya XUDOYBERDIYEVA

Kim bo'lsam ekan?



Aziz bolalar!


Yurtimizda ajoyib, dilbar yoz pallasi davom etib, Sizing maroq bilan olayotganingiz aniq. Siz sevgan va miriqib o'qiydigan «Tong yulduzi» esa to'g'ri tarbiya topishingiz va bilimli bo'lishingiz uchun doimo izlanishda, harakatda.

Ushbu sahifamizning bir nechalari bilan tanishgan tengdoshlaringiz yoz oylarida ham uni o'qish istagini bildirishgan edi. Shuni hisobga olib, sahifaning yangi sonini tayyorladik. Amir Temur bobongiz: «Bilagi zo'r - birni, bilimi zo'r - mingni yengar», deb aytganlar. O'zbek bolasi zukko, bilimli va dono ekan, desalar, biz juda-juda suyunamiz. Bilim esa igna bilan quduq qazigandek, asta-sekinlik bilan qo'lga kiritiladi. Shunday ekan, oz-ozdan o'rganib boring. Ulug'-ulug' bobolaringiz ham oz-oz o'rganib, dono bo'lganlar. Alqissa, sahifamiz bilan tanishish va fikrlaringizni yozib yuboring.



*Haq yo'lida kim senga bir harf
o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning
haqin yuz ganj ila.*
Alisher NAVOIY


*- Bobojon, kimdan mas-
lahat so'rash kerak?
- Uch fazilatga, ya'ni
poklik, yaxshilarga muhabbat
va chuqur bilimga ega bo'lgan
kishidan.*



Atrofingni buzuq ko'rsang, avval o'zingdan xabar ol.

* * *

Qizgina hatto choy qaynatishni ham bilmaydi, ro'molchasini yuvgan edi, qo'li qavaribdi. «Erga tegsang, nima qilasan?» desam, «Mening turmushim yangi bo'ladi», deydi.



Abdulla QAHHOR

Bundan atigi o'ttiz yillar oldin ariqlarimizda zilol suvlar to'lib oqardi, biz bolalar esa suvga issiq nonlarni oqizib, mazza qilib yeb, hovuchlab suv ichardik. Qo'y, echki, sigirlar ariqlar bo'yiga bog'lanmas yoki yaqinida boqilmas edi. Odamlar har yili bahor oylarida ariq, zovurlarni tozalab qo'yishardi, umuman, suv muqaddas hisoblanar va unga tupurish juda katta gunoh hisoblanardi. Bugun esa turli chiqindilar to'la ariqlarni ko'rib, joningiz achiydi. Ozingina harakat qilsak, biz ham ariq va zovurlarimizni toza, ozoda saqlashimiz mumkin. Suv -



yer va inson uchun muhim ahamiyatga ega. Odam tanasining 70 foizini suv tashkil etadi. Demak, tanamizda sodir bo'layotgan barcha fiziologik jarayonlar u yoki bu darajada suv bilan bog'liqdir. Odamning suvga bo'lgan bir sutkalik ehtiyoji har bir 40 kg. vazniga 40 ml. hisobidan, ya'ni 2, 5 - 2, 8 litr belgilanadi. Yoglar har kuni 8-10 stakan suv ichishni tavsiya etishadi. Ayrim mutaxassislar hatto 1, 5 litr suvni yetarli deb hisoblaydilar. Nima bo'lganda ham, suv - siz bilan biz uchun eng zarur ichimlik. Sog'lig'imiz ham ko'p jihatdan uning toza va shaffofligiga bog'liq. Chunki meva-cheva, poliz ekinlariga yetib boradigan suv toza bo'lishi kerak. Ana shunga erishishga harakat qilsak, bu o'zimiz uchun koni foyda emasmi? Siz suvga tosh otayotgan yoki chiqindi tashlayotgan beparvo kishilarni ko'rganingizda, ularga yuqoridagilarni tushuntirishga harakat qiling. Bu ham jasorat, bu ham qahramonlik va bu to'g'rida bizlarga albatta yozib yuboring. Xatlaringizni kutamiz.
SH.NIYANSHIXOVA tayyorladi

YOZ CHILLASI HAQIDA NIMALAR BILASIZ?

- Hozir qaysi oy? - so'radi Ravshan.
- Iyul oyi. Nimaydi?! - hayron bo'ldi o'rtog'i.
- Saraton deb ham eshitganmisan?
- Eshitganman. Yana nima gap?
- Saraton qancha davom etishini bilasanmi?
- To'g'risi, bilmayman.
- Bilishni istaysanmi?
- Istaganda qandoq!
- Unda, eshit: Saraton, eskicha oy nomi, bizda uni qisqichbaqa deb ham atashadi. 22-iyundan 22-iyulgacha davom etadi. Jami 31 kun. Bu oyni «Yoz chillasi», deyishadi. Oy davomida

ekinlar, giyohlar, xususan, g'o'za uchun zarur malham hisoblangan «issiq suv» oqadi. Uzun, qovun, tarvuz, meva-chevalarning shirinligi oshib, sharbatga aylanadi.

Xalq orasida saraton haqida quyidagicha gaplar yuradi:

*Yaxshi kelsa saraton,
Pisand emas qahraton.*

*Saraton issiq deb yotma,
Qo'lingdagi naqdni yo'qotma.*

*Saratonda tok sug'orsa sohibkor,
Uzumi oldida asal ham bekor.*

Saraton ana shunday foydali oy.

Bundan tashqari, yana boshqa oy nomlari ham bor. Ularni ham bilib olgin:

*Asad - «sher» degan ma'noni bildiradi.
Bu oy 22-iyuldan 21-avgustgacha davom etadi.*

Mezon - eski yil hisobi bo'yicha yettinchi

OB-HAVO DARAKCHILARI

Yozda oy ravshan ko'rinsa, shabnam tushadi.

Yoz quruq bo'lsa, qish qorsiz keladi.

oyning arabcha nomi bo'lib, «taroz» degan ma'noni anglatadi. 22-sentabrdan 21-oktabrgacha davom etadi.

Hut - eski yil hisobi bo'yicha o'n ikkinchi oyning nomi bo'lib, «baliq» degan ma'noni anglatadi. 19-fevraldan 21-martga qadar davom etadi.

Hamal - navro'zdan boshlanadigan oyning nomi. Lug'aviy ma'nosi «Qo'y»dir. 21-martdan 21-aprelgacha davom etadi.

Qavs - eski yil hisobi bo'yicha to'qqizinchi oy. «Yoy» degan ma'noni anglatadi. 21-noyabrdan 22-dekabrgacha davom etadi.

Savr - eski yil hisobi bo'yicha ikkinchi oy nomi. Lug'aviy ma'nosi «Ho'kiz», «buqa». 22-apreldan boshlanib, 22-mayda tugaydi.

Javzo - uchinchi oy. Ma'nosi «Oq, qora qo'y» demakdir. Davom etish vaqti 22-maydan 22-iyungacha.

GURUCH TARIXI

O'rta Osiyoda, xususan, Vatanimizda qadimdan sholikorlikning mavjudligi to'g'risida yunon tarixchisi va olim Strabonning «Jug'rofiya» kitobida ma'lumotlar bor. Shuningdek, O'rta Osiyoga milodiy yildan oldin 138-yildan to 126-yilga qadar elchi bo'lib turgan mashhur xitoy sayyohi Chjon Syan bu to'g'rida quyidagicha yozib qoldirgan:

«Parpiya (O'rta Osiyo) mamlakatida aholi o'troq yashaydi va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Guruch va bug'doy ekishadi. Uzumdan sharob tayyorlaydilar... Iqlimi issiq. Tuprog'i nam yerlardagi dovonliklar (farg'onaliklar) ham dehqonchilik qilishadi. Guruch va bug'doy ekishadi».





Kichkina odam bilan katta suhbat

«MEN HAM HOFIZ BO'LAMAN»

Faxriddin UMAROV! Bu nom san'at ixlosmandlariga juda yaxshi tanish. Hozirgi yoshlarimiz unchalik tanimasliklari mumkin. Lekin ularning ota-onalari, buva va buvilari bu ajoyib san'atkorimizni juda yaxshi bilishadi. Uning mashhur qo'shiqlarini xirgoyi ham qilib yurishadi.

Lekin bugungi hikoyamiz ustoz san'atkor emas, u kishining shogirdlari Faxriddin Umarov haqida. Tasodifni qarang-a, deya yotgandirsiz? Bu tasodif emas, Faxriddinning buvasi «Nabiram ham shunday ajoyib, el sevgan san'atkor bo'lsin», deya u kishining ismini qo'ygan ekanlar. Boboning niyatlari xolis ekan, jajji Faxriddin san'atga astoydil mehr qo'ydi. 4 yoshli bolakaydagi ishtiyoqni payqagan bobosi uni Zangiota tumanidagi Bolalar san'at maktabi sari yetakladi. 6 yoshidan tumandagi 42-maktabning rus tiliga ixtisoslashgan sinfiga qadam qo'ydi.

Hozirda o'rta maktabning 3-, musiqa maktabining esa 4-sinfini tamomlash arafasidagi Faxriddinni tanigan-bilganlar unga juda qobiliyatli, tirishqoq, samimiy bola, deya ta'rif berishadi. Darhaqiqat, o'zini ko'rmay turib pianinoda chalgan kuyini tinglasangiz, 8 yoshli bolakay emas, biror taniqli musiqachi chalayapti deysiz. Uning yana bir yaxshi fazilati bor: bo'sh vaqtini bekor o'tkazishni yoqtirmaydi. Fursat topildi deguncha, qo'lga kitob oladi. Faqat o'zbek adabiyotini emas, rus adabiyotini ham katta qiziqish bilan o'qiydi. Tushunmagan so'zlarini bir daftarga yozib, mazmunini kattalardan so'rab oladi. Aslida-ku, bo'sh vaqti unchalik ham ko'p emas: ikki maktabdagi saboqlari, sport mashg'ulotlari. Yana san'at maktabining xor dastasida yakkaxon sifatida qo'shiq ham aytadi. Tumanda san'at bobida bo'ladimi, sportdami, hech bir tadbir uning ishtirokisiz o'tmaydi, hisob. Yaxshi natijalari, yutuqlari bilan ustozlari, yaqinlarini quvontirib yuradi.

– Nabiram Faxriddinjon beshikdanoq Vivaldi, Motsart, Bax, Shubert kabi buyuk bastakorlarning asarlarini tinglab ulg'aygan, – deya hikoya qiladi uning buvisi. – San'atga ishtiyoqi balandligining boisi ham shunda bo'lsa, ajabmas. Hozirda 15 dan ortiq katta asarlarni bemalol chala oladi, ulardan o'rganib, o'zi ham kuylar yaratadi...

Faxriddin qo'lga kiritayotgan ozmi, ko'pmi yutuqlari uchun ilk ustozlari O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi o'qituvchisi Lola opa Rajabovadan, hozirgi ustozlari Bolets Nataliya Aleksandrovnadan behad minnatdor.

Bolakaydan kelajakdagi orzulari haqida so'radik. «Ustozim Faxriddin Umarovdek hofiz bo'lmoqchiman», dedi ishonch bilan. Kichik bo'lsa-da, katta orzular bilan yashayotgan bugunning bolasidagi qat'iyatni, ishtiyoqni ko'rib, kelajagimiz ishonchli qo'llarda ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Nodira TURG'UNOVA,
Aziza AKBAR qizi

DOSTON O'QISH O'RGANIB KELMABSIZ-DA, BOLAM, – dedi Mavlona bobo kesatib.

– Bolaligimda juda ko'p dostonlarni yodlab olgandim, – deya eslaydilar otam. – Ayniqsa, Ergash Jumanbulbul o'g'li yozgan dostonlar meni o'ziga rom etgan. Qishning uzun tunlarida dostonxonlik kechalari o'tkazardik. Qishloqning oqsoqollariga juda ko'p dostonlar o'qib berganman.

Qishloq oqsoqoli Yusuf boboning o'g'li qishloqqa birinchi muallim bo'lib kelganida, katta bayram bo'lgan. O'shanda qishloq ahli muallimni qizg'in kutib olishgandi. Kunlarning birida rahmatlik Yusuf bobo muallim o'g'lini olib, bizni dostonxonlik kechamizda qatnashdi. Bir xona liq to'la odam. Men ham «Ravshan va Zulxumor», «Avazxon» dostonlarini ko'tarib bordim. Odamlar zavq bilan kitob tinglashardi. Mavlona bobo:

– Kitobni yangi muallimga beringlar, – degan taklifni kiritdi. Qo'limdagi kitobni Yusuf boboning o'g'liga uzatdim. Muallim hayajondanmi, dostonni tutila-tutula o'qiy boshladi. Xonada gur etib kulgi ko'tarildi.

– Doston o'qishni o'rganib kelmabsiz-da, bolam, – dedi Mavlona bobo kesatib.

Xullas, muallim chollarning imtihonidan o'tolmadi. O'shanda ko'rganman rahmatlik Yusuf boboning ranglari xuddi dokadek oqarib ketganini, o'g'li kitob o'qishda pand berganini sezgan cholning qo'llari dir-dir titrardi. U ortiq chidab turolmay, davrani butkul tark etib ketdi... Doston o'qishning o'ziga xos mahorati bor. Uni har kim ham eplay olmaydi. Doston o'qish uchun qahramon holatini boshdan kechirishga to'g'ri keladi. Dostonlar bolalarimizni mardlikka, jasoratga chorlaydi. Vatanni sevishni o'rgatadi.

Ahtamqul KARIM,
Surxondaryo

UCHE IXERUOME O'ZBEKCHA GAPIRYAPTI

Futbolsevar bolajonlar sevimli jamoamiz «Paxtakor» safida afrikalik qora tanli futbolchi ham to'p surayotganini yaxshi bilishadi. U haqida yana-da ko'proq ma'lumot olish niyatida ekanliklarini ham yozishyapti. Shu maqsadda markaziy «Paxtakor» akademiyasi sari yo'l oldik.

Kelarmikin-a, degan hadikda turgandik, baland bo'yiga yarashgan afrikaliklarga xos yirtiq-yirtiq jinsi shim, oppoq futbolka va kepka kiyib, yelkasiga katta sport sumkasini osib olgan Uche kirib keldi. Unga peshvoz chiqar ekanmiz, xuddi avvaldan tanishdek biz bilan o'zbekcha «Assalomu alaykum» deb so'rashdi.

Uning beg'uborligi, samimiyligi, eng muhimi, kamtarligi bois suhbatimiz tezda jonlanib ketdi.

– Uche, yurtimizga xush kelibsiz.

– Rahmat! Osiyolik futbol mutasaddilarining taklifi bilan O'zbekistonga keldim.

Uche Ixeruome 1987-yil 14-aprel sanasida Nigeriyada tug'ilgan. Otasi biznesmen. Onasi boshlang'ich sinf o'qituvchisi. Maktabda u tarix, matematika, geografiya va iqtisod fanlarini yoqtirgan. Niyati, Ronaldo kabi chapdast futbolchi bo'lish.

Yurtingiz menga juda yoqdi.

– «Paxtakor»ga kelganingizda asosiy tarkibda o'ynamasdingiz...

– To'g'ri, o'sha paytda zahiradan maydonga tushardim. 2004-yilda atigi olti martagina maydonga to'p surdim, xolos. Achinarlisi, shuncha o'yinda bittayam gol kiritolmaganim bo'ldi. 2005-yilda ham oltita o'yin, bitta gol. 2006-yilning mavsumi men uchun omadli bo'ldi. O'zbekiston chempionati oliy liga bahslarida asosiy tarkibda to'p surdim. 24ta o'yinda maydonga tushib, 17 ta gol muallifiga aylandim va yurtingizda «Uche» bo'lib tanila boshladim. Shu ma'noda «Paxtakor» meni tarbiyaladi desam, mubolag'a bo'lmaydi.

– Bolaligingizda futbolchi bo'laman, deb o'yarladingiz?

– Yo'q. 5 yoshimdan boshlab tennis mashg'ulotlariga borganman. Har kuni mashg'ulotlardan so'ng ko'chamizdagi o'rtoqlarim bilan to'p o'ynardik. Bir kuni yonimga notanish odam kelib, «Futbolchi bo'lishni xohlaysanmi?»

deb so'radi. «Yo'q, men tennischi bo'laman», desam, u: «Futbolda o'zingni bir sinab ko'rgan», dedi. Bu gapni menga futbol klubiga qatnaydigan do'stim ham aytgandi.

– Qaysi futbolchilarni yoqtirasiz?

– Mirjalol Qosimov, Bekxem va Ronaldo. Ularga o'xshashni juda xohlayman.

– Maydonga «7» raqami bilan to'p surasiz. Uni o'zingiz tanlaganmisiz?

– Yo'q, bu raqamni klub tanlagan. Ko'pgina mashhur futbolchilar shu raqamda to'p suradilar.

– Uche, ismingiz tarixini aytib bersangiz.

– Onamning mendan oldingi farzandlari nobud bo'lavergach,

«Uchechuku» deb Xudodan so'rab olgan ekanlar. Bu ismimning ma'nosi sizlardagi Xudoyberdi, O'Imasjon ismlariga o'xshab ketadi.

– O'zbek tilini ham o'rganib olibsiz...

– Ha, hozirgacha «bo'pti», «rahmat», «assalomu alaykum» kabi so'zlarni o'rganib oldim. Har kuni bitta, ikkita o'zbekcha so'z o'rganyapman.

– Siz muxlislarimizga yoqdingiz. Ular ham sizga yoqishdimi?

– O'zbekistonlik muxlislar meni «Uche, Uche» deyishlaridan zavq olaman. Ammo yurtingizda muxlislar stadionlarga kam kelishar ekan. Nigeriyada futbol chindan ham millionlar o'yini hisoblanadi...

Maroqli suhbatimiz davomida 17 yoshida O'zbekistonga kelgan Uche «Paxtakor» jamoasidan ko'p narsalarni o'rgangani, shu yerda tarbiyalanib, mahorati oshganini bir necha bor takrorladi. Biz esa nigeriyalik futbolchimizning kelgusi yil Osiyo chempionlar ligasida juda ko'p gollarni raqib darvozasiga mohirona kiritib, «Paxtakor»ga omad olib kelishini niyat qildik.

Ma'mura MADRAHIMOVA suhbatlashdi



Ohuning ko'zlaridan ham chiroyli edi bu ovoz. Tag'in bu ovozda shu chog' hamma narsa mujassam edi. Iltimos-u talab ham, gina-yu achinish, yana allaqanday mehr bor edi. Siparangizning yoy tortgan qo'li joyida qotib qoldi. Shu payt daraxt panasidan chiqqan qiz yigitga go'zal bir tabassum hadya etdi-da, arg'umog'iga qamchi bosdi. Siparangiz o'ziga kelguncha qiz poyga yo'liga chiqib olgan edi.

Zarinaning ortidan Siparangiz ham ot qo'ydi. Biroq, qiz bu gal ham yetkazgisi kelmaganday arg'umog'ini yeldirib borardi. Endi Siparangiz qizni odamlar ko'z o'ngida ta'qib etgisi kelmay, jilovni sekin-sekin tortib qo'ya boshladi.

Zarina shu borishida o'zini kutib turgan qizlar to'dasiga qo'shildi. Dugonalar har ikkisinining bir-biriga munosibligini fahm etishar, ularni ortiqcha xijolatga qo'ymaslik uchun biri qo'yib, biri tahsin aytardi.

Shundan beri har ikkisinining sog'inchdan qalblari bir-biriga talpinar, yana visol kunlarini qo'msashar edi. Nihoyat, saklar qabilasiga sovchilar yo'llandi va erkaklar tuya junidan to'qib tikilgan chakmon kiyib, ayollar boshlariga oq ro'mol o'rab qaytishdi.

Zarinaning ota-onasi rozi, qiz ham. Ota-onam, qabiladoshlarim rozi ersa, men ham roziman, debdi.

Bugun esa to'y. Ulkan gardishli mis qozonlarda kiyik va qo'chqor etlari qaynab yotar, qirg'ovul-u o'rdak, O'kuzdan tutilgan necha xil noyob baliqlardan turfa taomlar pishirilardi. O'tovlar orasidagi keng yalanglikda kelin-kuyov uchun yasatilgan moviy saropardali o'tov.

TO'MARIS ONA

(Esse)



Murod ABDULLAYEV
Uning oldida tumonat odam, bola-baqra u yoqdan-bu yoqqa o'tishib, uzoq-yaqindan mehmon kutishmoqda.

Allaqachon yetib kelgan mehmonlarga esa bakovullar xizmat qilib turishibdi. Hali zamon kelin ham kelib qoladi. O'tov-qo'rg'on oldidagi keng sahnga katta gulxan yoqish uchun yermoyiga pishib olingan go'lagalar, quruq saksovol shox-shabbalari hozirlab qo'yilgan.

Olisdan qiyqiriqlar eshitilib, kelinni olib kelgani ketgan kuyov jo'ralar qaytayotgani xabari yetishi bilan o'tov-qo'rg'on atrofida alohida tayyorgarlik boshlanib ketdi. Yon-atrofdagi

o'tovlar oldida yasan-tusan qilib turgan qiz-juvonlar-u xizmatkorlar, mehmonlar gulxan yoqiladigan joyga yig'ila boshlashdi. Kuyov jo'ralar kelib joylashishi bilan yor-yorlarni baland ovozda kuylab kelayotgan ayollar ovozi eshitildi. O'rtadagi to'rt-besh ayolning qo'llarida doira, ularning taka-tumiga yosh-yalanglar o'yin tushib kelishardi. Orqadagi ikki-uch bezatiqli aravalarda kelinning seplari, dugonalari, qabiladosh ayollar-u kayvoni momolar. Zarinaning o'zi esa tog'asining uchqur tulporiga mingashib olgan. Saklar udumiga ko'ra kelinni eng yaqin qarindoshi otga mingazib, kuyovning uyiga boshlab boradi.

Ana, moviy o'tov-qo'rg'on oldidagi yalanglikda gulxan ham lovullay boshladi. Qiz-juvonlar, ayollar va ovozi do'rillab qolgan o'smir yigitchalar qiyqirishib, qo'shiq boshlashdi.

Davomi bor.

Yozuvchilar bolalarga

Anvar SOBIRJON o'g'li


Xona ichida emaklab yurgandim, bir payt qiya ochiq eshikdan to'rt oyoqli hayvon «miyov»lab kirib keldi. Ushlasam, yumshoq ekan. U «miyov»lab xonani aylana boshladi, uning orqasidan qiyqirib kulgan cha emaklashga tushdim. Ayamlar kirib qolib, «pishit» deb hayvonni haydab yubormaganlarida, kechgacha u bilan o'ynashga tayyor edim. «Men u bilan o'ynayapman, ayajon, nega haydaysiz?» dedim o'z tilimda chuldirab. Biroq, ayamlar gapimga tushunmay meni ko'tarib olib, qo'limni suvda yuvib tashladilar.

Bir kuni ayamlar meni beshikdan yechib olib gilamga yotqizdilar-da, xonadan shoshib chiqib ketdilar. Men ularning orqalaridan emaklab, yo'lga tushdim. Bir, ikki qadam emaklashim bilan beixtiyor o'rnimdan turib oldim. Qiziq, hech nimani ushlamasam-da, tik turardim. Bu biroz qo'rqinchli edi. Shu tufayli avaylab birinchi, so'ng ikkinchi qadamni tashladim. Yo'q, yiqilib tushmadim. «G'oz-g'oz turadigan bolaginamdan o'rgilay», deb ayamlar

xonaga kirib keldilar.

Bahor kunlarining birida meni beshikdan ertalab yechib olishdi. Uyimizga buvijonim, dadajonim, ayamlar, yana bir talay odamlar to'planishdi. Shu kuni men yangi kiyimlarimni kiyib, «g'oz-g'oz» turishimni namoyish

OLTIN



BESHIK

(Tamom.)

edim. Kattalar yurishimni ko'rishni istayotganlarini bilib, bir-ikki qadam tashlab ko'rsatdim. Ular xuddi yosh bolalardek xursand bo'lishdi. Buvijonim teshikkulcha, qovurilgan bug'doyni qo'shni bolalarga tarqatdilar. Bitta teshikkulchani oyog'im ostidan ham dumalatib yubordilar. Dadamlar qo'llariga olib, boshlari uzra ko'tardilar. Qiyqirib kulib yubordim. Xuddi qushga o'xshab uchayotganday edim.

Mehmonlar tarqalishgach, ayamlar beshikni yig'ishtira boshladilar. «Bolaginam katta yigit bo'ldi. Endi karavotda yotadi», deb qoldilar. Shundagina yog'och beshikka qanchalik o'rganib qolganimni payqadim. O'rnimdan turib bir-bir qadam tashlab, aziz beshigimni ushlab oldim. «Voy, bolaginam beshigidan ajralgisi kelmayapti», dedilar buvijonim.

Shunda men: «Buvijon, yorug' dunyoga kelgach, birinchi ko'rgan narsam, bir yil menga uy bo'lgan oltin beshigim bu», dedim o'z tilimda chuldirab. Biroq, dadam gapimga tushunmadilar shekilli, beshikni yudan olib chiqib ketdilar. Xayr, oltin beshigim.

Leonardo da VINCHI

TOSH va YO'L

Bor ekan-u yo'q ekan, bu yorug' olamda ulkan va ko'rkam tosh bo'lgan ekan. Toshning shundoqqina biqinida shirin qo'shiq kuylab jilg'a oqarkan. U zilol suvlari bilan toshni yuvib-tarab qo'yar, quyosh esa tonggi nurlari bilan uni silab-siypalar ekan. Toshning atrofi ko'm-ko'k maysalar, xushbo'y iforlar taratuvchi gullar bilan o'ralgan ekan. Vaqt o'tishi bilan jilg'a suvlari qurib qolibdi. Tosh esa hamon joyidan jilmay yotaveribdi. Toshdan sal nariroqda, adirdan pastda katta yo'l o'tgan bo'lib, u tosh yotgan joydan shundoqqina ko'rinib turar ekan. Qadrdon jilg'achaning shildirashini sog'inib, yolg'izlikdan zerikkan bechora tosh hamisha hayot qaynayotgan sershovqin yo'lga havas bilan termularkan. Bir kuni diqqinapas bo'lib ketgan tosh o'zini tutolmay baqirib yuboribdi:

— Yolg'izlik jonga tegdi. Maysa va gullardan menga ne foyda? Men o'z qardoshlarim bilan yelkama-yelka hayot tashvishlari hukmron yo'lda yashayman. U shunday deb tepalikdagi so'qmoq bo'yab yumalab ketibdi va ko'z ochib

yumguncha o'zini katta yo'l yoqasida, qadrdon birodarlari orasida ko'ribdi.

Eh-he, bu yo'ldan kimlar o'tmadi, deysiz. Temir qoplangan og'ir arava g'ildiraklari deysizmi, taqalangan ot tuyoqlari deysizmi, sigir, buzoq, yilqi podalarining chang bosib, o'tkir tig'li oyoqlari deysizmi, mustahkam mix bilan qoqilgan etiklari deysizmi, bari-bari toshlarni ezib, yanchib, dupurlatib o'taveradilar, o'taveradilar...

Sho'rlik tosh ana shu tinimsiz zarbalar ostida qolib ketdi. Uni bosdilar, tuproqqa bulg'adilar, sigir tezagini qulog'igacha

chapladdilar, so'ngra qo'pollik bilan bir chetga surib tashladilar. Avvalgi go'zaligidan asar ham qolmagan sho'rlik tosh asta xo'rsinib, tepaga iltijoli termular, qachonlardir o'zining jilg'a bo'yida yam-yashil maysalar, chaman ochilgan nafis gullar bag'rida yastanib yotganini qo'msardi. Endi uning fikr-u xayoli bir umrga yo'qotgan tinch

manziliga qaytishdan iborat bo'lib qoldi. Lekin endi kech, buning sira ham iloji yo'q edi. Shuni aytadilar-da, «Borida asrolmaymiz, yo'qotganda yig'laymiz», deb.

Alqissa, odamlar ham ba'zan hayotda adashib, bilib-bilmay, o'zlarining tug'ilib o'sgan qishloqlarini tashlab, sershovqin shaharga intilishadi. Oqibatda, bitmas-tuganmas mashaqqat va sargardonlik botqog'iga botganlarini sezmay qoladilar.

Rus tilidan Vasila PO'LATOVA tarjimai



Kunlarning birida asosan ko'chmanchilik qilib kun kechiruvchi, lo'lilar qabilasidan bo'lgan bir ayol bilan uchrashgan edim. U na o'qishni, na yozishni bilar, quvvayi hofizasida esa she'rlar yaratarkan. Biroq, yozishni bilmasligi

hisoblangan. Shu o'rinda Alisher Navoiy hazratlarining «Hamsat ul-mutahayyirin» asaridan Abdurahmon Jomiy haqidagi ushbu hikoyani siz bilan baham ko'rishni lozim topdik.

Hikoya qilinishicha, Abdurahmon Jomiyning tartib

sababli, uning xotirida yaralgan she'rlaridan birortasi ham yozma ifodasini topmagan. «Eh, yozishni bilmayman-da», deya armon bilan yozuv qog'ozlariga tikilgan edi ayol. Lekin yoshi ancha kattayib qolganligi bois, yozishni o'rganishning hech bir iloji yo'q ekanligini ta'kidlagan edi.

Taqdirning achchiq hazilini qarang... Axir umr bo'yi armon bilan yashab o'tishdan ham og'irroq narsa bormi?! O'lis o'lkalarga safar qilganda, otanang yoki yaqin do'stlaringga maktublar bitish ko'ngilning bayrami-ku, axir. Yuqoridagi kabi voqealarga duch kelar ekanman, yozuv insoniyat uchun baxtli hayot davomiyligi belgisi ekanligini tushungandek bo'ldim.

Qadimda yozilgan san'at asarlarini qayta ko'chiruvchi xushxat egalari - xattotlar bo'lishgan. Xattotlar ishi musavvirlik bilan taqqoslash darajasidagi nafis bir san'at

YOZUV HAQIDA YOZILGAN O'YLAR

berilgan devonini zamonasining xushnavislaridan biriga qayta ko'chirishga topshirishadi. Xattot devonni o'ta nafis ko'chiradi, biroq, ilmsizligi bois birorta ham misrani xatosiz ko'chira olmaydi. Alisher Navoiy hazratlari esa o'z ustoziga maslahat solib, «Agar sizning muborak qalamingiz bilan isloh topsa... zeb-u ziynat bo'lur», deydilar. Hazrat Jomiyning xati esa nihoyatda xunuk bo'lgan ekan va u kishi xattot qilgan qo'pol xatolarni to'g'rilaydi. Devon oxiriga esa ushbu qit'ani bitgan ekanlar. Mazmuni shunday:

Bir xati chiroyli (kotib) go'zallar yuzidek qilib, So'zlarimni bezab chiqdi.

Lekin u har joyda qalami xatosi bilan, Goh bir narsa ortirdi, goho esa tushirib qoldirdi. Men o'z xatim bilan uni tuzatib chiqdim, Garchi noqulay esa-da, ko'ngil tilagandek bo'ldi. U mening so'zlarimni nechog'lik buzgan bo'lsa, Men uning xatiga shunday qusur yetkazdim.

Chiroyli xat egasi bo'lish bilan birga chuqur va keng bilimli bo'lish ham juda muhim ekanligi yuqoridagi hikoya orqali yana-da teran anglashiladi.

Endi hozirgi kunimizni bir ko'z oldingizdan o'tkazib ko'ring. Xattotlar o'rini bugunga kelib kompyuterlar egallab oldi. Buning biz uchun qulay jihatlari ko'pdir. Lekin siyoh hidi anqib turgan, o'z qo'lingiz bilan yozilgan qo'lyozmalar o'rini hech narsa to'ldira olmaydi. Menga qolsa, dunyodagi eng xush hid siyoh hidi ekanligini aytgan bo'lardim...

Davr, odamlar, alifbolar o'zgarishi mumkin. Yozilgan asarlar esa o'z umrini yashayveradi. Keksalarimiz bilan suhbatlashar ekansiz, yozilgan narsalarni xor tutmasliklarini, ularga alohida bir ehtirom bilan munosabatda bo'lganliklarini kuzatasiz. Yozuvni muqaddas bilish hissini har birimiz xuddi ana shu taxlit o'z-o'zimizda tarbiyalay olmog'imiz lozim.

Go'zal MATYOQUBOVA

YOSH QALAMKASHLAR MAKTABI


O'tgan o'quv yilida Hamza tumanidagi 30-o'rta maktabda tashkil etilgan «Yosh jurnalistlar to'garagi» faol ishladi. Tajribali jurnalist, «Guliston» jurnali ijtimoiy-siyosiy bo'lim muharriri Abdurauf aka Rahimqulov rahbarligidagi to'garak a'zolarining maqola va she'rlari «Mahalla», «Chashma nur» gazetalarida chop etilib turadi.

Quyida to'garak a'zolari ijodidan namunalari o'qiydiz.

ISLOM MADANIYATI NIMA?

Yaqinda singlim: «Opa, Toshkent Islom madaniyati poytaxti bo'libdi. Bu nima degani?» deb so'rab qoldi. Shunda o'quv yilining so'nggi kunlarida maktabimizda yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan «Islom madaniyati nima?» mavzusidagi suhbat yodimga tushdi. O'shanda 2007-yilda Xalqaro islom konferensiyasi tashkiloti tomonidan shahrimiz Toshkentga «Xalqaro islom madaniyati poytaxti» nomi berilganini bilib olgandik. O'zimizni qiziqirgan savollarga tajribali o'qituvchilarimiz javob berishgandi. Ular Islomning mohiyati, maqsadi haqida tushuncha berib, biz yoshlarni tarix, adabiyot, din tarixi, milliy g'oya fanlari orqali ona Vatanga muhabbat, e'tiqod va iymon mustahkamligi, to'g'riso'zlik va har qanday salbiy xislatlardan holi, komil inson qilib tarbiyalashdagi o'ziga xos o'rni haqida gapirgandilar. Men ham singlimga ana shularni gapirib berdim.

Kamola SIROJOVA,
9-sinf o'quvchisi



KITOB O'QING, ZERIKMAYSIZ!

Maktabimizda «Matbuot va ma'naviyat» kunlari o'tkazilganini yaxshi eslayman. Bu tadbirda to'garagimiz rahbari A.Rahimqulov «Sharq» nashryot-matbaa konserni va boshqa nashriyotlardagi, shuningdek, gazeta va jurnal tahririyatlaridagi jurnalistlarning ish faoliyatlari bilan atroflicha tanishtirgandilar. Ushbu nashriyotlarda bosmadan chiqqan yangi kitoblarni maktab o'quvchilariga tarqatgandilar.

Ular orasida taniqli shoir Azim Suyunning «Ey, do'st», Bahrom Ro'zimuhammadning «Soyalar suhbat», Muhammad G'afforning «Qora tabassum», «Sukunat sohili», Xosiyat Rustamovanning «Najot», «Rido», O'ktamoyning «Sabrga suyanib», «Oqqush izlari» kabi kitoblari bor edi.

Ayni ta'til kunlarida bu kitoblarni navbatma-navbat o'qib, tushunganlarimizni bir-birimizga so'zlab beryapmiz, qiziqarli bahs va munozaraga kirishyapmiz.

Aziz tengdoshlarim, maslahatim, kitob o'qing, hech ham zerikmaysiz!

Habib SA'DULLAYEV,
9-sinf o'quvchisi

Bizning to'garak

ONA

Juda qadim zamondan,
Bu so'z mangu jaranglar.
«Ona» degani asli,
Mo'jizadir, qaranglar!

Ona go'yo bir oydir -
Biz uning yulduzlari.
Jannatlarga o'xshaydi,
Uning bosgan izlari.


Dunyoda bu ulug' zot,
Mehribondir, tengi yo'q.
Shod, baxtiyor yashayman,
Onam bo'lsa, ko'nglim to'q!

Nigora ULUG'OVA

Shaklda belgilangan xonadan raqam atrofida soat mili yo'nalishida:

1. Eng ommalashgan to'pli sport o'yini.
2. Boksdagi hisob ochilishiga olib keluvchi holat.
3. Gimnastika anjomi.
4. Tennis sporti anjomi.
5. Vatanimizning oliy tabaqa jamoasi.
6. Toshkentda bunyod etilgan birinchi futbol stadioni.
7. Qilichbozlik sport turi.
8. Sport maydonining musobaqa boshlanadigan qismi.
9. Teleradiokanalning taniqli sharhlovchilaridan biri.
10. Erishilgan eng yuqori ko'rsatkich.
11. Sayyohlik bilan bog'liq sport.
12. Vatanimiz janubiy viloyatidagi xalqimiz dostoni nomi bilan ataluvchi sport inshooti.
13. O'zbekistonlik xalqaro sport sovrindorlaridan biri.
14. Sport o'yinlarida to'p uriladigan moslama.
15. Qadimiy aqliy sport o'yini.
16. Dunyoga tanilgan futbolimiz yulduzi, murabbiyi.
17. Professional bokschisi, «Temir tan».
18. Mamlakatimiz chempionatidagi birinchi tabaqa jamoasi.
19. Musobaqada qayd etilgan yakuniy ko'rsatkich.
20. Jahonga taniqli sovrindor, o'zbek qilichbozi.
21. Musobaqa davomidagi tezlik darajasi.
22. G'alabani muborakbod etish, quvonchli marosim.
23. Yutuqqa erishishda muhim bo'lgan chaqqonlik.
24. Oliy liga futbol jamoasi.
25. Futbolda hisobni o'zgartiruvchi, mohir futbolchi.
26. Qisqa masofada yugurish sporti.
27. Texnika vositasi.
28. Jahonda tengsiz, professional bokschimiz.
29. Angliyaning mashhur futbol jamoasi.
30. Sportchi va sayyohlar foydalanadigan yuk xalta.
31. Nasldor, chopqir ot zoti.
32. Mahoratli gimnastikachi.
33. Viloyatga nomdosh futbol jamoasi.
34. Ot minib o'ynaladigan qadimiy musobaqa.
35. Vatanimizdagi ilk futbol jamoalari yuzaga kelgan vodiy.
36. Yutuq, muvaffaqiyat.
37. Vatanimizga xos qadimiy chavandozlik musobaqasi.
38. Suvning kuchli chayqalishidan yuzaga keladigan holat.
39. Musobaqalar o'tkazish va tomosha qilishga mo'ljallangan sport inshooti.
40. Asosan o'zini himoya qilishga asoslangan sport turi.
41. Argentinalik futbol yulduzi.
42. Yuqoriga chiqish va pastlikka tushish moslamasi.
43. Kikboksing bo'yicha jahon chempionligiga sazovor bo'lgan vatandoshimiz.
44. Chavandozlik musobaqasi ustasi.
45. Marraga yetib borish sporti.
46. Baydarka va kanoeda suzish bo'yicha Osiyo o'yinlari sovrindori, vatandoshimiz.
47. Bu yilgi «Universiada» sport o'yinlari mezboni, poytaxt.
48. Og'ir atletika sporti.
49. Sport transporti bilan o'ynaladigan to'pli o'yin.
50. Xokkey o'yinidagi penalti.
51. «Paxtakor» va terma jamoamiz hujumchisi.
52. Janubiy Koreya mamlakatida o'tkaziladigan Osiyo chempionatida sovrindor bo'lgan o'zbek shtangachisi.
53. Chillaklarni maydondan urib chiqarish musobaqasi.
54. Musobaqada g'oliblikni tasdiqlovchi hujjat.
55. Yaxmalak yoki chimli yo'llarda mototsiklda o'tkaziladigan poyga.
56. Shohmot o'yinida ortga qaytmas dona.
57. Dvigatelining quvvati o'rtacha bo'lgan mikroavtomobillarda o'tkaziladigan kimo'zar musobaqasi.
58. Teng natija bilan tugallangan musobaqa.
59. Sportdagi qarshi tomon.
60. Raketka bilan o'ynaladigan o'yin.
61. Xalqaro Olimpiada o'yinlari vatani bo'lgan mamlakat.
62. Shohmot donasi.
63. Futbolda to'purarning darvozabon bilan amalga oshiradigan jarama to'pi.
64. Polvonlar musobaqasi o'tkaziladigan maxsus maydoncha.

«SPORT OLAMI» KROSSVORDI



42. Yuqoriga chiqish va pastlikka tushish moslamasi.
 43. Kikboksing bo'yicha jahon chempionligiga sazovor bo'lgan vatandoshimiz.
 44. Chavandozlik musobaqasi ustasi.
 45. Marraga yetib borish sporti.
 46. Baydarka va kanoeda suzish bo'yicha Osiyo o'yinlari sovrindori, vatandoshimiz.
 47. Bu yilgi «Universiada» sport o'yinlari mezboni, poytaxt.
 48. Og'ir atletika sporti.
 49. Sport transporti bilan o'ynaladigan to'pli o'yin.
 50. Xokkey o'yinidagi penalti.
 51. «Paxtakor» va terma jamoamiz hujumchisi.
 52. Janubiy Koreya mamlakatida o'tkaziladigan Osiyo chempiona-

tida sovrindor bo'lgan o'zbek shtangachisi.
 53. Chillaklarni maydondan urib chiqarish musobaqasi.
 54. Musobaqada g'oliblikni tasdiqlovchi hujjat.
 55. Yaxmalak yoki chimli yo'llarda mototsiklda o'tkaziladigan poyga.
 56. Shohmot o'yinida ortga qaytmas dona.
 57. Dvigatelining quvvati o'rtacha bo'lgan mikroavtomobillarda o'tkaziladigan kimo'zar musobaqasi.
 58. Teng natija bilan tugallangan musobaqa.
 59. Sportdagi qarshi tomon.
 60. Raketka bilan o'ynaladigan o'yin.
 61. Xalqaro Olimpiada o'yinlari vatani bo'lgan mamlakat.

62. Shohmot donasi.
 63. Futbolda to'purarning darvozabon bilan amalga oshiradigan jarama to'pi.
 64. Polvonlar musobaqasi o'tkaziladigan maxsus maydoncha.

MUAMMONOMA

Avvalo quyida ta'riflanib, raqamlarda ifodalangan so'zlarni topib, ochqichni hal eting.

1. Dunyoda ommalashgan o'zbek kurashida haqiqiy g'alabaga berilgan nom - 19, 2, 6, 4, 6.
2. Tig'li sport anjomi - 10, 1, 6, 1, 15.
3. Hozirgi zamonaviy qoidalari XVI - XVII asrlarda Angliyada yuzaga kelgan, Yunoniston qadimiy Olimpiada o'yinlari musobaqasi

dasturidan ham o'rin olgan, yakka-makka musobaqa 13, 4, 18, 3.
 4. Futbol o'yini qismi - 9, 2, 17, 20.
 5. Yengil atletikada ulotqirish anjomi - 17, 2, 11, 8, 4.
 6. Futbol anjomi - 9, 12, 14.
 7. Shohmotda donalarning o'zaro bog'langan bir necha yurishlarini o'z ichiga olgan holat - 16, 2, 8, 1, 2, 7, 9.
 8. Og'ir atletika anjomi - 9, 4, 5.

Endi ochqich so'zlari javoblari asosida shakl atrofidagi raqamlarni harflar bilan almashtirib, muammonomani yeching. Bunda ularda yashiringan ibratli so'zlarini bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Tong YULDUZI

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvov SARIQOV.

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel/ faks: (99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV.

Noshir:
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta «O'zbekiston»
nashriyat-matbaa ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi. Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 20636
Buyurtma N: J 3822

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va
sahifalovchi:
Fazliddin
SHOYODGOROV

Navbatchi:
Sayyora
JO'RAYEVA